

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

BADIIY MATNNI TAHLIL QILISH TAMOYILLARI

Yulduz Do'smuradova¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada intertekstuallik tushunchasi, ularga berilgan turli ta'riflar, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari hamda ushbu tamoyillar asosida Tohir Malikning "Shaytanat" asari badiiy matn tahlili uchun namuna sifatida olindi. Matnlarning ajralmas qismi bo'lgan intertekstuallik badiiy matnning shakllanishi va idrok qilinishida muhim lingvistik vosita sanaladi. Bunday matn parchalari tayyor lisoniy birlik sifatida kitobxonning ongidan allaqachon joy olganligi uchun intertekstuallik qatnashgan badiiy matnni tushunish ancha osonlashadi hamda muallifning badiiy niyati o'quvchi uchun yana ham aniqlashadi. Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo'lib, bugun u lingvistika va adabiyotshunoslikning tadqiq predmetlaridan biriga aylanib ulgurdi. Maqolada bir qancha olimlarning tadqiqotlari, tahlil usullari haqida ham fikrlar berilgan bo'lib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, badiiy tahlil, tamoyil, intertekstuallik, intertekst matnlar, barqaror birikma*

Annotation. This article is devoted to the concept of intertextuality, various definitions given to them, principles of artistic text analysis, and on the basis of these principles Tahir Malik's work "Shaytanat" was taken as an example for artistic text analysis. Intertextuality, which is an integral part of texts, is considered an important linguistic tool in the formation and perception of artistic text. Since such fragments of text are already in the mind of the reader as a ready-made linguistic unit, it becomes easier to understand the artistic text with intertextuality, and the author's artistic intention becomes more clear for the reader. Intertextuality is one of the main principles in the text analysis and today it has become one of the research subjects of linguistics and literary studies. In the article, some scientists' researches and analysis methods were also commented on.

Key words: *artistic text, artistic analysis, principle, intertextuality, intertextual texts, stable combination.*

Barchamizga ma'lumki, badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional ekspressiv ifoda semalari reallashgan leksik birliklarni aniqlash hamda ular haqida mulohaza yuritish talab

¹ Yulduz Do'smuradova – *Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası doktoranti, O'zga tilli guruhlar da o'zbek tili ta'limi kafedrası o'qituvchisi.*

Iqtibos uchun: *Do'smuradova, Y. (2024) Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 31-34 b.*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/YIKZ2260

qilinadi. Ushbu talablarning isboti sifatida yozuvchining yozgan asarida ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli so'zlar, chet va vulgar so'zlar, barqaror birikma va iboralar ajratib olinadi.

Shu asnoda aytib o'tish joizki, o'zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida ko'pgina izlanishlar olib borgan M.Yo'ldoshev badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:[5:48]

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq va tili adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.

Biz ushbu tamoyillardan eng oxirgisiga urg'u beradigan bo'lsak, dastavval intertekstuallik atamasiga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, tilshunoslikda intertekstuallik tushunchasi keng qo'llanilgan va hozirga qadar o'rganib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. *"Intertekstuallik"* atamasi *"inter"* -o'rta, *"tekst"-matn* so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan bo'lib, matn ichida keladigan matnni anglatadi [4:259-263]. Intertekstuallik bu – ma'lum bir matn ma'nosini boshqa matn bilan to'ldirilishidir.

Intertekstuallik atamasi jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida bir qancha olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan. Uni fanga olib kirgan Y. Kristeva intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta'kidlab, ko'proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg'u beradi [1:465].

Yana bir ma'lumot sifatida shuni aytish mumkinki, intertekstuallikning asosiy vazifasi - ushbu matn tarkibidagi har qanday matnga havolalar juda aniq bir adresatga, ya'ni matnlararo havolani taniy oladigan va ma'lum bir havolani tanlashni ideal baholay oladigan shaxsga yo'naltirilishi mumkin. Uning orqasida turgan niyatni yetarlicha tushunib olish oson bo'ladi. Ba'zan intertekstual matnlar o'quvchilarning ma'lum bir qismining e'tiborini jalb qilish uchun mo'ljallangan murojaatlar sifatida qo'llaniladi.

Badiiy matnni tahlilida juda ko'p yozuvchi va shoirlar ijodiga to'xtalish mumkin. Jumladan, mahoratli yozuvchi Tohir Malik ijodida ham intertekst turlaridan juda o'rinli va unumli foydalanilgan. Yozuvchining *"Shaytanat"* romanida uchraydigan intertekstualliklar asosan quyidagi manbalar asosida hosil qilingan deyish mumkin:

1. Muqaddas kitob, hadislar.
2. Barqaror birikmalar.
3. Folklor namunlari: afsona, doston, ertak, rivoyat va maqollar.
4. Tarixiy voqea-jarayonlarga ishora qiluvchi allyuziyalar.
5. Mashhur badiiy asarlar muallifi va qahramoniga ishora qiluvchi allyuziyalar.

Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan intertekstuallik hodisalarini tekshiramiz:

1. Barqaror birikma, iboralar:

"Ularga «xudo bor», desangiz, ishonishmas, lekin «devorning qulog'i bor», desangiz, ishonishadi. Ularning nazarida daraxtlarning, hatto o't-o'lanlarning ham qulog'i bor."

"O'zi pishirgan sho'rvani o'zi ichsin, — dedi Chuvrindi. Bu gapdan Asadbek ko'ngliga ravshanlik kirdi."

"O'tgan hafta u ijroqo'm rahbaridan biriga «bizning ko'chaga ham son bitadimi yo yo'qmi», degan edi. Ko'chadagi harakatni ko'rib, «bizning gapimiz ham yerda qolmaydigan bo'libdi», deb g'ururlanib qo'ydi."

"To'ng'ich farzandi emaklay boshlaganida erini urushga kuzatgan, ikki oydan so'ng qora xat olganiga qaramay, besh yil yo'lga ko'z tikkan, og'zim oshga yetdi deganda esa boshi toshga tekkan mushfiq ayol haqida keyinroq so'z ochaman."

"To'g'ri, «falonchi hofiz falonchi ashulachining choyiga surma qo'shib ichiribdi», degan gaplarni ko'p eshitgan."

"Panaroqqa o'tib qarasaki, belbog'da sariq chaqa ham yo'q — besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Haydar «bu qishloqi ko'zni shamg'alat qilmoqchi ekan», deb o'yladi."

"Senga ijozat, — dedi Asadbek, yumshoq ohangga o'tib. — Aytilgan ishni qil. Sharifning o'rnini sovutma."

— Nevara ko'ribsan, ismini Samandar qo'yibsan, oradan bir yil o'tibdi... Asad degan o'rtog'im bor edi, xursandchiligimga sherik qilay, ukasining oti ham Samandar edi, nevaramga ot qo'yishda bir so'rab olay, deyishga aqling kaltalik qildimi? Tiling bir qarich. Birovga so'z bermaysan-u, shunaqa narsalarga kelganda kallang ishlamay qoladi, xom oshqovoq!

Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi harakat, holatlarni baholashda ayni keng qo'llanuvchi barqaror birikmadir.

1. Maqollar:

Har holda «hisobli do'st ayrilmas», deganlar.

"Puling bo'lsa, changalda sho'rva, deyishadi. Puli ko'p odam balki sho'rvani chindan ham changalida ushlab turishi mumkindir. Ammo o'z jonini ushlab qola olarmikin?"

2. Folklor namunalari:

«O'ynamasa kim o'zganing nayiga, Shum niyat-la tushadilar payiga!» qo'shiqdan.

"Gapingiz to'g'ri, — dedi Chuvrindi, — bir hikmat bor: tariqday mamlakatning rahbarlari kambag'allikdan chiqish yo'llarini izlab, oxiri Amerikaga urush ochmoqchi bo'lishibdi. Urush ochsak, ular bizning yurtimizni bosib olishadi, so'ng xalqimizni boqishga majbur bo'lishadi, deyishibdi. Shu qarorga kelishganda ulardan biri: «agar biz ularni yengsak-chi, xalqini qanday boqamiz?» deb tashvishlangan ekan."

3. Mashhur badiiy asarlar muallifi va qahramoniga ishora qiluvchi allyuziyalar

"Shayton g'olib, jon berarda shoshdim mano". Ahmad Yassaviydan satr."

"Ming yillar muqaddam o'tgan Yevripid degan shoir:

Nomussizlik gar ilashsa nikoh ipiga

Ayol qalbi shu qadarli qonsiragayki,

Topolmaysiz yer yuzida bunaqasini, deganida balki bizning hamshirani nazarda tutgandir."

Matnlarda o'zga matn parchalarining qo'llanilishi orqali kitobxonning intertekstuallik ostidagi mazmunni hamda berilgan matnni qiyosan tushunishi uchun imkoniyat yaratiladi. Intertekstual birliklar asarning vertikal kontekstini yaratadi, ya'ni ma'lum bir matn orqali oldin yaratilgan boshqa birini ham idrok qilish mumkin bo'ladi. Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, yozuvchi asarlarini intertekstuallik asosida tahlil qilish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, ularda intertekstual matnlar juda mahorat bilan qo'llanilgan. Tohir Malikning "Shaytanat" asarida bunday intertekstlar juda ko'p va xilma-xil. Ularning lingvistik tahlili, tadqiqi bevosita keyingi ishlarimizda davom etadi.

ADABIYOT:

Kristeva, J. Bakhtine, (1967) le mot, le dialogue et le roman Texte. J. Kristeva Critique, № 239, pp. 465.

Malik T. Shaytanat. (1-kitob) 2007.

Qurbonova, M., Yuldashev, M. (2014) Matn tilshunosligi. Toshkent.

Кадирова Х. Б., Мамедов Х. В. СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИКС-ФЕМИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА АЗЕРБАЙДЖАНСКИХ, ТУРЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ ОГУБЛЁННЫХ И НЕОГУБЛЁННЫХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК // SAI. 2024. №Special Issue 28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sopostavitelnyy-analiz-iks-femicheskogo-haraktera-azerbaydzhanskih-turetskih-i-uzbekskih-ogublyonnyh-i-neogublyonnyh-poslovits-i>

Кадирова Х. (2024). ДИСФЕМИЗМ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ). Новости журнала УзМУ, 1 (1.1.1.), 273-276. <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/781>.

Xomidova, M. F. "The problem of intertextuality in modern linguistics." Central Asian Problems of Modern Science and Education 3.4 (2019): 259-263.

Yo'ldoshev, M. (2010) Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Fil. fan.doktori... diss.Toshkent.

Musulmanova N. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. Vol. 2 (5) (2023) <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/80>

MUNDARIJA:

| | | |
|----|---|-----|
| 1 | Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir..... | 3 |
| 2 | Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati..... | 7 |
| 3 | Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish..... | 15 |
| 4 | Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari..... | 21 |
| 5 | Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi.. | 25 |
| 6 | Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari..... | 31 |
| 7 | Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari..... | 35 |
| 8 | Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri..... | 39 |
| 9 | Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati..... | 45 |
| 10 | Abdulkhaimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari..... | 56 |
| 11 | Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi..... | 61 |
| 12 | Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari..... | 66 |
| 13 | Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi..... | 70 |
| 14 | Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles..... | 75 |
| 15 | Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish..... | 79 |
| 16 | Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна..... | 82 |
| 17 | Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan..... | 88 |
| 18 | Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi..... | 91 |
| 19 | Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar..... | 96 |
| 20 | Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar..... | 102 |
| 21 | Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari..... | 107 |
| 22 | Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari..... | 112 |